

ODAMNING PAYDO BO‘LISHIDA CHARLZ DARVIN NAZARIYASINING PAYDO BO‘LISHI

Ismailova Gulshoda Mamayusuf qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

dobryjdobryj173gmail.com

Abduraxmanova Sevara Xayrulla qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

sevaraabduraxmonova686@gmail.com

Abdujabborova Muhayyo Asomiddin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

abdujabborovamuhayyo1@gmail.com

Annotasiya Ushbu maqolada inson paydo bo‘lishi haqida ko‘plab olimlar tomonidan ilgari surilgan Charlz Darvin nazariyasining mohiyati haqida to‘xtalib o‘tiladi. Bunda Darvinizm g‘oyasi asoslariga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek Charlz Darvinning bunday xulosaga kelishiga nimalar sabab bo‘lgani to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Darvinizm, lamarkizm, "Bigl", "Odamning paydo bo‘lishi va jinsiy tanlanish", "Turlarning kelib chiqishi", A. Uolles, vitalizm, kreationsizm.

Абстрактный В данной статье рассматривается суть теории Чарльза Дарвина о происхождении человека, которую выдвигали многие ученые. Особо были затронуты также основы идеи дарвинизма. Также рассматривается, что заставило Чарльза Дарвина прийти к такому выводу.

Ключевые слова: дарвинизм, ламаркизм, «Бигль», «Появление человека и половой отбор», «Происхождение видов», А. Уоллес, витализм, креационизм.

Abstract This article examines the essence of Charles Darwin's theory about the origin of man, which was put forward by many scientists. The fundamentals of the idea

of Darwinism were also particularly touched upon. It also examines what led Charles Darwin to reach this conclusion.

Key words: Darwinism, Lamarekism, “Beagle”, “The Emergence of Man and Sexual Selection”, “The Origin of Species”, A. Wallace, vitalism, creationism.

Kirish. Darvin Charlz Robert London yaqinidagi Shrusberi shahri 1809-yil 2-dekabr kunida dunyoga kelgan. U ingliz tabiatshunosi, hayvon va o‘simlik turlarining tabiiy tanlanish yo‘li bilan kelib chiqqanligi haqidagi evolyusion ta’limot asoschisi hisoblanadi. "Bigl" kemasida tabiatshunos sifatida dunyo sayohatiga chiqib (1831—1836), zoologiya, botanika, geologiya, paleontologiya, antropologiya va etnologiya sohasida kuzatishlar olib bordi. Shu kuzatishlar asosida biologiya va amaliy seleksiyaning zamonaviy yutuqlariga asoslanib organik dunyo evolyusiyasining asosiy omillarini ochib berdi.

Asosiy qismi Darvin. "Turlarning kelib chiqishi" asarida hayvon va o‘simlik turlarining kelib chiqish, rivojlanish sabablarini va atrof muhitga moslanishini tahlil qildi. "Odamning paydo bo‘lishi va jinsiy tanlanish" asarida odamning maymunsimon ajdodlardan kelib chiqqanligining biologik va ijtimoiy shart-sharoitlarini ilgari surdi. Charlz Darvin nazariyasiga ko‘ra, hayotdagi hamma narsa rivojlanadi va bir turga mansub avlodlar ota-onasidan farq qilishi mumkin. Bu g‘oyalar yangi yoki g‘ayrioddiy emas edi. Ammo Darvin evolyutsiya aynan qanday kechishini taxmin qilib, tabiiy tanlanish tushunchasini kiritdi. Uning so‘zlariga ko‘ra, tabiat “yashash uchun kurashda” omon qolishga eng moslashuvchan organizmlarni “tanlaydi”. Har bir organizm boshqa organizmlardan biroz farq qiladi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Boshqalardan farqli o‘laroq, ayrimlari ularni omon qolishga qodir qiladigan xususiyatlarga ega. Shuning uchun ular uzoqroq umr ko‘rib, ko‘proq nasl qoldiradi. Shunday tarzda, “ma’qul” xususiyatlar ko‘proq avlodlarga o‘tadi. Asta-sekin hayot shakllari ajdodlaridan farq qila boshlagan va biologlar ularni mustaqil, har xil turlarga ajratgan.

Darvin buni yangi turlar paydo bo'lishining natijasi deb hisoblagan. Uning nazariyasi hali ham evolyutsiya haqidagi zamonaviy tushunchalarning asosini tashkil etadi.

Darvinning "Turlarning paydo bo'lishi" deb nomlangan mashhur kitobi uning evolyutsiya va tabiiy tanlanish haqidagi g'oyalarini ommaga tanitdi. Darvinning g'oyalari uning dunyo bo'ylab qilgan sayohatlaridagi o'z kuzatuvlari asosida shakllangan. Darvin 1831–1836-yillar oralig'ida HMS Beagle kemasida ekspeditsiya qatnashchilaridan biri bo'lgan. Kema Janubiy Amerika, Avstraliya va Afrikaning janubiy qirg'oqlarida to'xtab o'tadi. Kema ekspeditsiya uchun har to'xtaganda Darvinda mahalliy hayvonlar va o'simliklarni o'rganishga imkoniyat bo'ladi.

Darvin sayohat davomida organizmlarning xususiyatlari va tarqalishidagi ajoyib qonuniyatlarni ko'ra boshladi. Biz shunday qonuniyatlardan eng muhimlarini uning Ekvador qirg'oqlarida joylashgan Galapagos orollarida qilgan kuzatishlarida ko'rishimiz mumkin.

O'zgaruvchanlik organizmlar tuzilishi va funksiyasida yangi belgilarning hosil bo'lishidan iborat. Irsiyat orqali bu belgilar nasldan naslga o'tadi. Yashash uchun kurash tufayli muhit sharoitiga eng yaxshi moslashgan belgiga ega bo'lgan individlar yashab, nasl qoldiradi, ya'ni tabiiy tanlanish yuz beradi. Tabiiy tanlanish natijasida yangi turlar paydo bo'ladi. Shuning bilan birga organizmlarning tashqi muhitga moslanishi nisbiy xususiyatga ega. Darvin ishlaridan mustasno tarzda ingliz biologi A. Uolles ham xuddi shunday fikrga kelgan. Darvinizmning rivojlanishi va targ'ib qilinishiga ingliz tabiatshunosi T. Geksli (1860-yilda "Darvinizm" terminini taklif etgan), nemis olimlari F. Myuller va Gekkel Ernste, rus olimlari aka-uka A.O. va V.O. Kovalevskiylar, otabola N.A. va A.N. Seversovlar, I.I. Mechnikov, I.I. Shmalgauzen va boahqa bir qancha olimlar katta qissa qo'shgan. XX asrning 20—30 yillarida klassik Darvinizmning genetika fani yutuqlari bilan uyg'unlashtirilishi tufayli sintetik evolyusion ta'limot shakllana boshladi. Darvinizm yaxlit ta'limot sifatida biologiyada revolyusion burilish yasadi; kreasionizm, vitalizm va lamarkizmga zarba berdi; XIX asrning ikkinchi yarmida tabiiy va ijtimoiy fanlar va umuman madaniyatning rivojlanishiga katta ta'sir

ko'rsatdi. Shunga qaramasdan Darvin tirikligidayoq evolyusiyada tabiiy tanlanishni inkor etuvchi yoki uning ta'sirini cheklashga harakat qiluvchi turli oqimlar paydo bo'la boshladi. Evolyusiyaning asosiy muammolari bo'yicha bahslar zamonaviy biologiya fanida ham davom etib kelmoqda.

Xulosa. Mashhur biolog olim Darvin o'zining asarlarida sayohatlari natijasi hisoblangan Darvinizm g'oyasini ilgari surgan. Ushbu nazariyaga ko'ra yangi turlar bu mutatsiyaga uchragan tabiiy tanlanish natijasida shakllanganligi keltirib o'tiladi. Butun dunyoda albatta bu nazariyaga qo'shiluvchilar va ushbu nazariyani inkor etuvchilar ham yetarlicha topiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Charles Darwin: A pictorial biography by Danny Vendramini - Part 1, 2011-12-12da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2011-04-13
2. AboutDarwin.com - Darwin's Timeline, 2011-04-26da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2011-04-13
3. Bakulina.N.A ,, Mikrobiologiya '' Toshkent meditsina-1979